O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Qumqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511, qumhok@exat.uz

2022 - yil 24 - iyun 344-8-114-Q/22 Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qumqo‘rg‘on tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi “Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida”gi PF–2791-sonli Farmoni 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Ushbu qaror “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida rasman e’lon qilish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Shapulatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.M.Normamatov**

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 24 iyundagi
344-8-114-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	QFY soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/ tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Saxovat MFY	47	1	1320	11047	11,04
2.	Tebat MFY	65	1			
3.	Bobotog' MFY	38	1			
4.	Azlarsoy MFY	14	1			
5.	Tayfang MFY	23	1			
6.	Yangiobod MFY	20	1			
	Jami	**207**	**6**	**x**	**x**	**x**

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 24 iyundagi
344-8-114-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tumanning qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

QQSsiz

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	Ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Saxovat MFY	47	2	1856	29102	29
2.	Tebat MFY	65	1			
3.	Bobotog' MFY	38	1			
4.	Azlarsoy MFY	14	2			
5.	Tayfang MFY	23	2			
6.	Yangiobod MFY	20	2			
	Jami	**207**	**10**	**x**	**x**	**x**